



YANGI ASR
UNIVERSITETI

2025

TURKIY DAVLATLAR SIVILIZATSIYASI: O'TMISH VA HOZIRGI ZAMON

mavzusidagi Xalqaro miqyosdagi
ilmiy va ilmiy-amaliy konferensiyasi
to'plami

The Collection of the International
Scientific and Scientific-Practical
Conference on the topic of

CIVILIZATION OF TURKIC STATES: HISTORY AND CONTEMPORARY DEVELOPMENTS



YANGI ASR UNIVERSITETI

24-IYUN
2025

Toshkent shahar, Olmazor tumani,
Beruniy ko'chasi 36-uy

MAS'UL
MUHARRIR:
K.T.Zaxidov -
Yangi asr
universiteti ilmiy
ishlar bo'yicha
prorektori, DsC,
prof v.b

To'plam
muharrirlari:
Tagayev Q.
Sahatov F.
Saparov S.

«Turkiy davlatlar sivilizatsiyasi: O'tmish va hozirgi zamon»
mavzusidagi xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi, (2025-
yil 24-iyun, Toshkent, O'zbekiston, Yangi asr universiteti)

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

B.I.Ishandjanov- Yangi asr universiteti rektori

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

N.Annayeva
A.Muminov
I.Salayev
B.Muxtarov
F. Sahatov
I.Matyakubov
N.Qodirova
S.Saparov
O'.Fayziyev

Ushbu to'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar Vazirligining 2024-yil 24-dekabrda 490-sonli
buyrug'iga asosan, 2025-yil Respublikada o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy
- texnik tadbirlar rejasiga muvofiq, Otaturk universiteti bilan
hamkorlikda Yangi asr universitetida 2025-yil 24-iyun kuni o'tkazilgan
xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallaridan iborat.

To'plamda joy olgan tezislarda keltirilgan ma'lumotlarning to'g'riligiga
mualliflar javobgardirlar.

KIRISH

Turkiy davlatlar tamadduni dunyo sivilizatsiyasi tarixida alohida o'rin tutadi. Uning ildizlari qadimgi turkiy qabilalarning davlati, ijtimoiy tuzumi, madaniyati va tilida mujassam bo'lib, asrlar davomida geosiyosiy, madaniy va ilmiy jihatdan boy tarixiy merosni shakllantirgan. Ushbu sivilizatsiyaning shakllanishi va taraqqiyoti Markaziy Osiyo, Kavkaz, Sibir, Volga bo'yi, Sharqiy Yevropa va keyinchalik Anatoliya, Ozarbayjon va boshqa hududlarni qamrab olgan.

Turkiy xalqlar o'zining davlatchilik an'analari, harbiy va siyosiy tajribasi, yuqori madaniy merosi hamda islom sivilizatsiyasi bilan uyg'unlashgan rivojlanish yo'li bilan tanilgan. Qaroqalpoqlardan tortib, qipchoqlar, og'uzlar, turkmanlar, o'zbeklar, qozoqlar va boshqa turkiy xalqlar tarixi butun Yevroosiyo makonidagi sivilizatsion jarayonlarning faol ishtirokchilari bo'lgan.

Hozirgi kunda Turkiy davlatlar Tashkiloti doirasidagi hamkorlik, umumiy til, madaniyat, tarix va iqtisodiy manfaatlar asosida yanada mustahkamlanmoqda. Bu, o'z navbatida, turkiy sivilizatsiyaning tarixiy jarayonlar bilan bir qatorda, zamonaviy global voqelikda ham muhim o'rin tutayotganini ko'rsatadi.

Ushbu ishda turkiy sivilizatsiyaning tarixiy asoslari, asosiy bosqichlari, uning davlatchilik, madaniy va ilm-fan sohalaridagi yutuqlari hamda bugungi kundagi integratsion jarayonlardagi ahamiyati ilmiy tahlil etiladi.

Yangi asr universiteti rektori

B.I. Ishandjanov

4. Khan M. A. Friends Not Masters: A Political Autobiography. – Karachi: Oxford University Press, 1967. – P. 3.
5. Mubashir H. The Mirage of Power: An Inquiry into the Bhutto Years 1971-1977. – Oxford: Oxford University Press, 2001. – P. 296.
6. Rafi R. Zulfikar Ali Bhutto and Pakistan 1967-1977. – Oxford: Oxford University Press, 1997. – P. 188.
7. Wynbrandt J. A Brief History of Pakistan. – New York: An imprint of Infobase Publishing, 2009. – P. 197.

ERONDA KONSTITUTSION HARAKATLAR VA PARTIYAVIY FAOLIYAT

Oriental universiteti katta o'qituvchisi
Qoraboyev Murodjon

Annotatsiya. Maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Eronda yuzaga kelgan Konstitutsion harakatning vujudga kelish sabablari, rivojlanish bosqichlari va tarixiy-siyosiy ahamiyati hamda ushbu jarayon doirasida shakllangan partiyaviy faoliyat tizimli ravishda tahlil qilingan. Shuningdek, konstitusiyaviy islohotlar jarayonida siyosiy partiyalar va harakatlarning shakllanishi, ularning mafkuraviy yo'nalishlari va jamiyat siyosiy hayotidagi o'rni ilmiy asosda ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Eron, Konstitutsion harakat, Majlis, siyosiy partiyalar, milliy burjuaziya, ruhoniylar, konstitusiyaviy islohotlar, siyosiy modernizatsiya.

Abstract. The article provides a systematic analysis of the causes, stages of development, and historical and political significance of the Constitutional Movement in Iran at the turn of the late nineteenth and early twentieth centuries, as well as the party activities that emerged within this process. Particular attention is paid to the formation of political

parties and movements during the constitutional reform period, their ideological orientations, and their role in the political life of society, examined on a scholarly basis.

Keywords: Iran, Constitutional Movement, Majlis, political parties, national bourgeoisie, clergy, constitutional reforms, political modernization.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Eron jamiyatining ijtimoiy-siyosiy hayoti chuqur va tizimli inqiroz holatiga yuz tutdi. Qojarlar sulolasi hukmronligi davrida mamlakatning siyosiy va iqtisodiy taraqqiyoti sezilarli darajada susaydi, davlat boshqaruvi markazlashmagan va samarasiz tus oldi. Shoh hokimiyatining mutlaq xarakterga ega bo'lishi, siyosiy qarorlar qabul qilishda ijtimoiy qatlamlar manfaatlarining inobatga olinmasligi jamiyatda norozilik kayfiyatlarini kuchaytirdi. Ayniqsa, mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmoqlari ustidan xorijiy davlatlar nazoratining ortib borishi Eron suverenitetiga jiddiy tahdid sifatida namoyon bo'ldi. Xorijiy kapitalga berilgan imtiyozlar, konsessiyalar va savdo monopoliya huquqlari milliy iqtisodiy manfaatlarga zid bo'lib, aholining turmush darajasining pasayishiga olib keldi.

Mazkur sharoitda davlat moliyaviy tizimining izdan chiqishi, soliq yukining asosan oddiy aholi zimmasiga tushishi hamda davlat qarzlarning ko'payishi ijtimoiy keskinlikni yanada kuchaytirdi. Sud-huquq tizimining adolatsizligi, mansabdor shaxslar va mahalliy hokimlarning o'zboshimchaligi, qonun ustuvorligining ta'minlanmaganligi jamiyatda siyosiy islohotlarga bo'lgan ehtiyojni keskin oshirdi. Natijada Eron ijtimoiy-siyosiy hayotida mavjud tartibotlarni tubdan o'zgartirishga qaratilgan harakatlar shakllana boshladi.

Aynan shu tarixiy sharoitda Konstitutsion harakatlar Eron tarixida siyosiy tizimni isloh qilishga qaratilgan muhim burilish nuqtasi sifatida maydonga chiqdi. Ushbu harakat mutlaq monarxiyani cheklash, qonun ustuvorligini joriy etish, vakillik organi sifatida Parlament (Majlis)ni tashkil etish va davlat boshqaruvida jamoatchilik ishtirokini kengaytirish kabi g'oyalarni ilgari surdi. Konstitutsion harakat Eron jamiyatining turli ijtimoiy qatlamlari, xususan, savdogarlar, ziyolilar, hunarmandlar hamda ayrim ruhoniylar manfaatlarini umumlashtirgan siyosiy harakatga aylandi.

Eron Konstitutsion harakatining shakllanishi va rivojlanishiga bir qator ichki va tashqi omillar hal qiluvchi ta'sir ko'rsatdi. Ichki omillar sirasiga markaziy hokimiyatning zaiflashuvi, moliyaviy inqiroz, soliq tizimining adolatsizligi, davlat boshqaruvida korrupsiya va sud-huquq tizimining samarasizligi kiradi. Mazkur muammolar mamlakatda ijtimoiy tengsizlikni chuqurlashtirib, siyosiy norozilikning ommaviy tus olishiga sabab bo'ldi.

Tashqi omillar esa asosan Buyuk Britaniya va Rossiya imperiyalarining Eron ichki ishlariga faol aralashuvi, siyosiy-iqtisodiy bosimi hamda strategik resurslar ustidan nazoratni kuchaytirish bilan bog'liq edi. Xorijiy davlatlarga berilgan iqtisodiy imtiyozlar milliy manfaatlariga zid ravishda amalga oshirilib, Eronning iqtisodiy mustaqilligini cheklab qo'ydi. Natijada, mamlakatning siyosiy va iqtisodiy kelajagiga bevosita tahdid soluvchi ushbu omillar jamiyatning keng qatlamlarini konstitutsiyaviy islohotlar va huquqiy davlat barpo etish g'oyasi atrofida birlashtirdi.

Shu tariqa, Konstitutsion harakat Eron tarixida nafaqat siyosiy tuzumni isloh qilishga qaratilgan harakat, balki milliy ongning yuksalishi,

davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni qayta ko'rib chiqishga bo'lgan urinish sifatida ham muhim tarixiy ahamiyat kasb etdi.

1905-1911-yillar oralig'ida Eron tarixida kechgan Konstitutsion inqilob murakkab va ko'p bosqichli jarayon sifatida namoyon bo'ldi. Ushbu inqilob mamlakatda mutlaq monarxiya tizimini cheklash, siyosiy hokimiyatni qonuniy-me'yoriy asosda tartibga solish hamda jamiyat hayotida huquqiy tamoyillarni qaror toptirishga qaratilgan keng ko'lamli harakat edi. Inqilobning dastlabki bosqichida ijtimoiy norozilik chiqishlari, ommaviy namoyishlar va siyosiy talablar shakllandi. Savdogarlar, hunarmandlar, ziyolilar va ayrim ruhoniylar davlat boshqaruvidagi adolatsizlik, soliq yukining og'irligi hamda xorijiy ta'sirning kuchayishiga qarshi chiqib, islohotlar talab qila boshladilar.

1906-yil konstitutsion harakat tarixida burilish nuqtasi bo'ldi. Aynan shu yilda vakillik organi sifatida Majlisning tashkil etilishi hamda Konstitutsiyaning qabul qilinishi Eron siyosiy tizimida tub o'zgarishlar uchun huquqiy asos yaratdi. Konstitutsiya shoh hokimiyatini cheklash, qonun chiqaruvchi organ vakolatlarini belgilash va fuqarolarning ayrim siyosiy huquqlarini tan olishni nazarda tutdi. Bu hujjat davlat boshqaruvida qonun ustuvorligi va mas'uliyat tamoyillarini joriy etishga qaratilgan ilk urinish sifatida muhim ahamiyat kasb etdi. Shu bilan birga, Konstitutsiyaning amaliyotga joriy etilishi murakkab kechib, siyosiy qarama-qarshiliklarning kuchayishiga olib keldi.

Inqilobning keyingi bosqichlarida konstitutsiyaviy tuzumni mustahkamlash hamda unga qarshi bo'lgan kuchlar bilan kurash jarayoni yuzaga keldi. Mutlaq monarxiya tarafdorlari, ayrim harbiy doiralar va xorijiy davlatlar manfaatlariga xizmat qiluvchi kuchlar konstitutsiyaviy islohotlarni cheklashga intildilar. Bu esa siyosiy beqarorlik, qurolli to'qnashuvlar va ichki nizolarning avj olishiga sabab bo'ldi. Shunga

qaramay, konstitusiyachilar davlat boshqaruvida parlamentning rolini mustahkamlash, qonuniylikni ta'minlash va siyosiy islohotlarni davom ettirish yo'lida faol harakat olib bordilar.

Konstitutsion harakatlar jarayonida Eronda ilk bor siyosiy partiyalar va jamoat-siyosiy uyushmalar shakllandi. Demokratlar, mo'tadillar hamda boshqa siyosiy guruhlar jamiyatni isloh qilish, parlament tizimini rivojlantirish va fuqarolik erkinliklarini kengaytirish g'oyalarini ilgari surdilar. Ushbu partiyalar o'z dasturlari orqali davlat boshqaruvida ishtirok etish, siyosiy mas'uliyat va qonun ustuvorligini ta'minlashga intildilar. Ularning faoliyati siyosiy fikrlar xilma-xilligini yuzaga keltirib, jamiyatda siyosiy ong va madaniyatning shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Natijada, Konstitutsion inqilob nafaqat Eron siyosiy tizimida muhim institutsional o'zgarishlarni boshlab berdi, balki mamlakatda partiyaviylik an'analari, parlament madaniyati va siyosiy faollikning rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratdi. Bu jarayon Eronning keyingi siyosiy taraqqiyotida muhim tarixiy tajriba sifatida alohida o'rin egallaydi.

Konstitutsion harakatda ruhoniylar va savdo-burjuaziya qatlamlari yetakchi kuchlardan biri bo'ldi. Ruhoniylar konstitusiyaviy tuzumni shariat tamoyillari bilan uyg'unlashtirishga intilgan bo'lsa, milliy burjuaziya iqtisodiy mustaqillik va siyosiy vakillikni kengaytirishga harakat qildi.

Eron Konstitutsion harakati mamlakatda parlament tizimi, siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishiga asos soldi. Garchi harakat to'liq muvaffaqiyatga erishmagan bo'lsa-da, u Eron siyosiy modernizatsiyasining muhim bosqichi sifatida tarixda muhrlanib qoldi.

Xulosa qilib aytganda, Eronda yuz bergan konstitutsion harakatlar va uning doirasida shakllangan partiyaviy faoliyat mamlakat tarixida siyosiy

ongning uyg'onishi hamda islohotchilik tafakkurining qaror topishida muhim bosqich bo'ldi. Ushbu jarayon jamiyatning turli qatlamlarini siyosiy jarayonlarga faol jalb etib, hokimiyatni cheklash, qonun ustuvorligini ta'minlash va davlat boshqaruvida vakillik tamoyillarini joriy etish g'oyalarining keng yoyilishiga xizmat qilgan. Konstitutsion harakat natijasida shakllangan parlament tizimi, siyosiy partiyalar va jamoat uyushmalari Eron jamiyatida yangi siyosiy madaniyatning vujudga kelishiga zamin yaratgan.

Shuningdek, mazkur harakat mamlakatda fuqarolik jamiyati unsurlarining rivojlanishi, siyosiy mas'uliyat va huquqiy ongning ortishi jarayonini tezlashtirdi. Garchi konstitutsiyaviy tuzum turli ichki va tashqi qarama-qarshiliklar, siyosiy beqarorlik hamda xorijiy aralashuvlar sharoitida to'liq barqarorlasha olmagan bo'lsa-da, u Eron siyosiy tarixida muhim tajriba sifatida saqlanib qolgan. Aynan shu davrda jamiyatda siyosiy islohotlarning zarurligi, hokimiyat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy asosda tartibga solish masalalari dolzarb muammo sifatida anglab yetildi. Natijada, Erondagi konstitutsion harakat va partiyaviy faoliyat keyingi davrlardagi siyosiy jarayonlar, jumladan, milliy davlatchilik g'oyalarining rivoji, siyosiy institutlarning shakllanishi va zamonaviy siyosiy tizimning vujudga kelishida muhim tarixiy asos bo'lib xizmat qilgan. Ushbu tajriba Eron jamiyatining siyosiy taraqqiyotida uzluksizlik va merosiylik tamoyillarini anglash, shuningdek, zamonaviy siyosiy islohotlarni baholashda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abrahamian E., Iran between two Revolutions, New York, 1983, P. 79.

2. Edward G. Browne, The press and Poetry of Modern Persia, Cambridge University, P. 130.
3. Мамедова Н.М. Политические партии Ирана. Публично-правовые исследования. 2006 (1) Public law studies. С. 179–180.
4. Мехди Малек-заде, Тарихе энгелабе машрутийате Иран //История конституционной революции в Иране//,Техран, С. 237.
5. Реза Годс М. Иран в XX веке. Политическая история. М., 1994, С. 47.

СИЁСИЙ МОДЕРНИЗАЦИЯСИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШ АСОСЛАРИ (ХИТОЙ МИСОЛИДА)

ТДШУ мустақил тадқиқотчиси
Абдулхаев Абдурашид Нодир ўғли

Аннотация. Мақолада сиёсий модернизация тушунчасининг назарий асослари ва уни тадқиқ этишга доир асосий ёндашувлар Хитой Халқ Республикаси тажрибаси мисолида таҳлил қилинган. Хитойда сиёсий модернизация жараёнлари иқтисодий ислохотлар, мафкуравий барқарорлик ва давлат бошқарувининг марказлашган модели билан уйғун ҳолда ривожлангани илмий жиҳатдан асослаб берилган. Шунингдек, сиёсий модернизациянинг ғарбона моделлари билан Хитойга хос тараққиёт йўли ўртасидаги фарқлар кўрсатилиб, “хитойча модернизация” концепциясининг назарий ва амалий аҳамияти баҳоланган.

Калит сўзлар: сиёсий модернизация, Хитой тажрибаси, давлат бошқаруви, сиёсий институтлар, Хитой Коммунистик партияси, модернизация моделлари, “хитойча модернизация”.

Abstract. The article analyzes the theoretical foundations of the concept of political modernization and the main approaches to its study

MUNDARIJA

KIRISH	3
 TURKIY DAVLATLAR TARAQQIYOTIDA “BUYUK IPAK YO‘LINING” TUTGAN O‘RNI	
QAXXOROV S.S. BUYUK IPAK YO‘LIDA JOYLASHGAN AYRIM DAVLATLARGA “OMMAVIY MADANIYAT”NING TA‘SIRI.....	4
RASULOVA G.N. BUYUK IPAK YO‘LI VA TURKIY XALQLAR MADANIY INTEGRATSIYASI.....	11
KABULOV R.J. BUYUK IPAK YO‘LI FAOLIYATIDA O‘RTA OSIYONING O‘RNI.....	15
GAZIYEVA G.M. BUYUK IPAK YO‘LI VA ZIYORAT YO‘LLARI DOIRASIDA O‘ZBEKISTON-SAUDIYA ARABISTONI TARIXIY ALOQALARI: SIVILIZATSIYALARARO UZVIYLIKDAN ZAMONAVIY HAMKORLIKKA.....	211
SAIDBOQIYEVA M.R. BUYUK IPAK YO‘LI: MADANIYATLAR USTIDA KO‘PRIK...	31
QODIROVA N.M, ABDUMANNONOVA S.D. TURKIY DAVLATLAR TARAQQIYOTIDA BUYUK IPAK YO‘LINING TUTGAN O‘RNI.....	40
AKMALOVA Z.A. TURKIY DAVLATLAR TARAQQIYOTIDA “BUYUK IPAK YO‘LINING TUTGAN O‘RNI”.....	44
 TURKIY DAVLATLAR IQTISODIYOTI VA SIYOSIY ALOQALARINING MUSTAHKAMLANISHI: IMKONIYATLAR VA ISTIQBOLLAR	
ISMATULLAYEV F.O. GLOBALLASHUV DAVRIDA O‘ZBEKISTONNING XALQARO ALOQALARI TARIXIDAN.....	50
ИБРАГИМОВА Н.М. НАУЧНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО СТРАН ОТГ: ПРИОРИТЕТЫ И ИНСТРУМЕНТЫ РАЗВИТИЯ.....	58
YILMAZ JANKALO‘G‘LI TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTINING KELAJAGI.....	65
SAHATOV F.K. COMPARATIVE ANALYSIS OF SOFT POWER STRATEGIES: SOUTH KOREA AND TURKEY.....	69
SOBIROV J. O‘ZBEKISTON VA TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI: HAMKORLIKNING YANGI IMKONIYATLARI VA ISTIQBOLLARI	75
POLVONOVA Y. TURKIY DAVLATLAR RENESSANSI.....	81
MUMINOV K. TURKIY DAVLATLARDA ISLOM INVESTITSIYA MAHSULOTLARINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYATLAR VA ISTIQBOLLAR.....	89

SHAXIDOVA D. <i>TURKIY DAVLATLAR IQTISODIY ALOQALARINING MUSTAHKAMLANISHIDA IMKONIYATLAR VA ISTIQBOLLAR.....</i>	97
ISMATULLAYEVA Z.SH. <i>XALQARO MADANIY DIPLOMATIYA:KECHA VA BUGUN.....</i>	100
TOSHQULOVA SH.S. <i>TURKIY DUNYO IQTISODIY MUNOSABATLARIDA TOG'KON VA GEOLOGIYA SOHASINING O'RNI: AKADEMIKLAR V.RAHIMOV HAMDA H.AKBAROV ILMIY MAKTABLARI MISOLIDA.....</i>	110

TURKIY DAVLATLARNING TURIZM SOHASIDAGI HAMKORLIGI

MUMINOV A.Z. <i>MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI O'RTASIDA TURIZM SOHASIDA O'ZARO HAMKORLIK.....</i>	122
ZOKIROV Z.T. <i>TURKIY HAMJAMIYAT DOIRASIDA BARQAROR TURIZM RIVOJI: MINTAQAVIY HAMKORLIKNING ZAMONAVIY SHAKLLARI.....</i>	128
HAYDAROVA F.A. <i>TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIDA ZAMONAVIY YONDASHUV.....</i>	136
TUXTAMIRZAYEVA N.M. <i>O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIIY-HUQUQIY ASOSLARI.....</i>	141

TURKIY DAVLATLARDAGI JUG'ROFIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

SAIDUMARXO'JAYEVA M.S. <i>TURKIY XALQLARNING IJTIMOIIY JOYLASHUVI..</i>	147
--------------------------------------------------------------------------------	-----

TURKIY DAVLATLARNING UMUMIY TARIXINI TADQIQ QILISH VA ILMIY HAMKORLIK

OTAXO'JAYEV A. <i>SUG'D MA'MURIY BOSHQARUV TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR (MAHALLIYLIK, TURKIYLIK).....</i>	152
QO'LDOSHEV SH. <i>TURKIYALIK SAVDOGAR ABDURAHIM AFANDI VA QO'QON XONI HUDOYORXON.....</i>	161
YULDOSHXODJAYEV H. H. <i>MUSOXON DAHBIDIY ASARLARIDA TASAVVUF TARIXI MASALALARI VA ULARNING ILMIY AHAMIYATI.....</i>	175
MAMATOV D.N, BEKCHONOVA SH.B. <i>TURKIY DAVLATLAR SIVILIZATSIYASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....</i>	182
ШӘЯХМӘТОВА Л.Х. <i>КАЮМ НАСЫЙРИНЫҢ ТОРМЫШ ЮЛЫ ҺӘМ ИЖАТЫ....</i>	189

ÖMƏROV V. QƏRBI AZƏRBAYCANDA DAĞLIQ BORÇALININ (VƏ YA DAĞ BORÇALISININ) MADDI VƏ MƏNƏVI MƏDƏNIYYƏTI.....	203
SHARIPOV A. IMOM-BUXORIYNING TURKIYADA O'RGANILISHIGA DOIR.....	217
QO'CHQOROV T. IX-XIII ASRLARDA ERONDA HUKMRONLIK QILGAN TURKIY SULOLALAR.....	224
MELIHA NUR ÇERÇİNLİ SHUKRULLAH EFENDI, THE AMBASSADOR OF KHIVAH IN OTTOMAN ARCHIVE DOCUMENTS.....	234
MAHMUDOVA G.H. AZƏRBYACAN RESPUBLİKASININ BOLONIYA PROSESİNƏ QOŞULMASI ZƏRURƏTİ.....	252
BEGALIYEV R.J ALOUDDIN BUXORIYNING AQIDAVIY MASALALARGA OID OYAT VA HADISLARNI SHARHLASH USLUBI.....	260
SOBIROV Z.N. TURKIY XALQLAR ORASIDA DINIY VA MA'NAVIY QADRIYATLAR BIRLIGI.....	265
KARIMOV Sh.SH. TEMURIYLAR SALTANATIDA VAZIRLIK INSTITUTI VA DEVON TIZIMI.....	275
TOJIYEV D.B., NURMANOV SH.M. "TURKIY DUNYONING MADANIYAT POYTAXTLARI" (QOZOG'ISTON VA TURKMANISTON SHAHARLARI MISOLIDA).....	291
SAPAROV S.X. THE KIDARITES PERIOD IN CENTRAL ASIA: 4 TH – 6 TH CENTURIES CE.....	302
NABIJONOV S.A. TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGI ELCHILIGINING 1872-YILDA QO'QON XONLIGIGA YUBORILISHI.....	308
SAIDAKBAROV X.S. MAMLUKLAR DAVRIDA TARIX ILMINING RIVOJLANISHI.....	316
FAYZIYEV O'.T. TURKISTONDA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNI IJTIMOY HIMOYA QILISH TIZIMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI.....	323
YULDASHOV SH.A. SHARQIY TURKISTONDA MA'RIFATPARVARLIK HARAKATI: TARAQQIYPARVAR ZIYOLILAR FAOLIYATI VA MAKTAB ISLOHOTLARI.....	332
ERMATOVA M.A. XX ASR BOSHLARIDA OROLBO'YI AYOLLARINING HUQUQIY MAQOMI: SUD AMALIYOTI VA AN'ANALAR.....	338
SALAYEV I.B., ALOVIDDINOV H. TOSHKENT SHAHRIDA SUV TA'MINOTINING TARIXIY-ASOSIY SHAKLLARI.....	346
BABAJANOVA D. SHARQ AYOLINING SIYOSIY QIYOFASI: YODGOR NASRIDDINOVA FENOMENI.....	352
SALAYEV I.B., RAXMATOV O'.N. MAHMUDXO'JA BEHBUDIY – MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARINING ASOSCHISI.....	359
ABDUMUTALIBOV A.A. VALIAHD MUHAMMAD SULTONNING AMIR TEMUR SALTANATIDAGI RO'LI.....	364

QODIROVA N.M, FAHRUTDINOVA N.J. TURKIY DAVLATLARNING TA'LIM TIZIMI YOXUD ILM-FAN SOHASIDAGI YANGI TARAQQIYOT BOSQICHLARI.....	372
XODJIMURATOVA D. ERON SIYOSIY TIZIMIDA OLIY RAHBARNING O'RNI HOKIMYATLAR MUVOZANATI	381
MAMATQULOV S.X. MILITARY INFLUENCE ON SOCIAL-POLITICAL PROCESSES IN PAKISTAN.....	388
QORABOYEV M. ERONDA KONSTITUTSION HARAKATLAR VA PARTIYAVIY FAOLIYAT.....	398
ABDULXAYEV A.N. SIYOSIY MODERNIZATSIYANI TADQIQ ETISH ASOSLARI.....	404
RIZAYEV A. ARAB DAVLATLARI MILLIY IDENTIKLIK EVOLYUTSIYASIDA ZIYOLILARNING O'RNI.....	412

TURKIY TILLARNI RIVOJLANISHI VA SAQLANISHI: TILSHUNOSLIK VA MADANIY ALOQALAR

ЗУЛПУКАРОВ К.З., ТАЛИПОВА С. Э. ПАДЕЖИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА В СРАВНЕНИИ С КЫРГЫЗСКИМИ.....	421
ЗУЛПУКАРОВ К.З., КАРИМОВА Т.У. АЛИШЕР НАВОИ И ПРОБЛЕМЫ СОПОСТАВИТЕЛЬНОГО ЯЗЫКОЗНАНИЯ.....	435
KARIMOV B.R. TURKIY SIVILIZATSIYA TILLARI RIVOJNING MUAMMOLARI (O'RTATURK TILINI VA O'RTABITIK YOZUV TIZIMINI YARATISH JIHATLARI)...	442
ANNAYEVA N.R. JALOLIDDIN RUMIY ILMIY MEROSINING TURKIY XALQLAR TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI.....	452
BOBOJONOV G'. TURKIY XALQLARNING MUSHTARAK YODGORLIGI.....	457
MATYAKUBOV I.B., BETÜL KARABULUT MÜZİKOTERAPİ.....	465
MATYAKUBOV I.B., BARIŞ COŞKUN TÜRKİYE'DEKİ EZAN GELENEĞİNİN ÖZBEKİSTAN'DAKİ EZAN GELENEĞİYLE BULUŞMASI.....	477
ƏLİYEVA G.F. MÜSTƏQILLIK DÖVRÜ AZƏRBAYCAN-ÖZBƏKİSTAN ƏDƏBI-MƏDƏNI ƏLAQƏLƏRİNƏ BİR BAXIŞ.....	488
QASIMOVA X. QƏDIM ƏDƏBI ABIDƏLƏRDƏ AZƏRBAYCAN DİLİNDƏ TERMINLƏRİN İŞLƏNMƏSİ.....	495
JO'RAYEV J.A. "LUG'ATI CHIG'ATOIY BA FORSIY" DA HAYDAR XORAZMIY HIKOYATLARI TILI XUSUSIDA.....	497
ABDURAHMONOVA Z. TURKIY DAVLATLAR SIVILIZATSIYASIDA PSIXOLOGIK BILIMLARNING O'RGANILISHI VA TARBIYA MASALALARI.....	502
БАЙКАБИЛОВ У.А. САПАЛЫ БІЛІМ НЕГІЗІ - ЖАҢАША ОҚЫТУ ҮДЕРІСІНДЕ.....	506
SAYDALIYEV A.I. TURKIY DAVLATLARNING TA'LIM SOHASI HAMDA HAQQONiy TARIXNI YARATISHDAGI HAMKORLIGI.....	512

ABDULLAYEVA R.Q. "NAZM UL-JAVOHIR" ASARINING GENEZISI G'OYAVIY-IRFONiy MOHIYATI VA POETIKASI.....	518
IBRAGIMOVA M. NUTQ MADANIYATI TUSHUNCHASI	530
BERDIMURATOVA M.X. NOVERBAL VOSITALARNING KOMMUNIKATSIYADAGI AHAMIYATI.....	540
ARTIKOVA D.A. O'ZBEK TILIDA FITONIMLARNING KELIB CHIQISHIGA DOIR.....	546
ELMURATOV A. TURKIY XALQLARDA TILSHUNOSLIK VA MADANIY ALOQALAR.....	550
ELMURATOV A. TURKIY TILLARNING RIVOJLANISHI VA SAQLANISHI.....	553
JAMOLOV L.K. QORAQALPOG'ISTON HUDUDIDAGI TURKIY XALQLAR TILLARI LEKSIKASINING IJTIMOiy-TARIXIY ASOSLARI.....	557
SOLIYEV E.M. XVII – XX ASR AVVALIGA OID TURKIY TAFSIRLARNING MATNIY XUSUSIYATLARI.....	562
ZAYRIYEV A.E. TURKIY TILLARNING ZAMONAVIY BOSQICHDAgi RIVOJLANISH OMILLARI: TIL SIYOSATI VA MADANIY ALOQALAR.....	568
MUHAMMEDBABAYEVA X.F. ZAMAXSHARY'S "MUQADDIMATU-L-ADAB": A MULTILINGUAL LEXICON AND GRAMMAR.....	576
MASHARIPOVA X.F. KAMOLIDDIN BEHZOD ASARLARINI O'RGATISH ASOSIDA TALABALARDA ESTETIK TASAVVUR HAMDA IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH.....	597
KURBANOVA SH.Y. TURKIY TIL, TAFAKKUR VA TARBIYA BIRLIGI: HOFIZ XORAZMIY IJODIY MEROSIDA HIKMATLI FIKRLAR.....	601
SALAYEV I.B., RAXMATOV O'N. ABDULLA AVLONIY – O'ZBEK SAHNA SAN'ATINING ASOSCHILARIDAN BIRI.....	607
NAZAROV O.R. "O'ZBEKISTON – 2030" STRATEGIYASIDA TA'LIM SOHASIDAGI USTUVOR YO'NALISHLAR.....	613
RAIMOV A.R. SINONIM SO'ZLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA ULARNING DIFFERENSIAL BELGILAR ASOSIDA TAHLILI.....	619
ESKALIEVA SH.A. ISH YURITISH TERMINOLOGIK TIZIMIDA XALQARO PREPOZITIV TERMINELEMENTLARNING O'RNI.....	625
SOBIROVA S.O. YOSHLARNI KASBGA YO'NALTIRISHDAGI DEMOGRAFIK MUAMMOLAR.....	632
KARIMJONOVA G.R. TÜRKİ DİLLERİN KORUNMASI VE GELİŞİMİ.....	636
НОСИРОВА М.М. ТЮРСКИЙ ЯЗЫК И КУЛЬТУРА. НА ОСНОВЕ КНИГИ «ТЮРКИ» ЛИНГВИСТА БАРТОЛЬДА.....	640

BEKCHONOVA SH.B., NOSIROVA M.M. TURKIY TILLARNING TILSHUNOSLIGI VA MADANIY ALOQALARI.....	645
BAXTIYORJONOVA G.A. ARAB TILINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	648
IXTIYOROVA U. THE PRACTICAL IMPORTANCE OF DEVELOPING THE EFLECTIVE ABILITIES OF FUTURE EDUCATORS.....	654
JONQULOVA S.S. TURKIY TILLARNING YO'QOLISH XAVFI VA RAQAMLI MUHITDA ULARNI TIKLASH IMKONIYATLARI.....	662
ASHUROVA SH. AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA XORIJIY TILLARNI O'RGANISHNING DOLZARBLIGI.....	666
KATTAYEV P.A. RISOLAI BOBURIYA NUSXALARINING QIYOSIY-MATNIY TADQIQI TURKIY XALQLAR ADABIY MEROSIDAGI O'RNI.....	669
JURAYEV M.U. "NAHJUL FARODIS" ASARI MAVZU KO'LAMI HAMDA QO'LYOZMA NUSXALARINING MATNIY TADQIQI.....	677
MATYAKUBOV I.B. SHARQIY XAN(DONG HAN 东汉) SULOLASINI YUKSALISHIDAGI MARKAZIY OSIYONING RO'LI.....	684
ШӘРИГҮЛ ПАЙЗУЛЛАЕВА БЕРДАҚТЫҢ «ШЕЖИРЕ» ДӘСТАНЫНДА ТҮРКІЙ ХАЛЫҚЛАР ТАРИЙХЫ	692
ABDULLAYEV J. M. UBAYDIY KULLIYOTINING O'RGANILISH TARIXI.....	697
ABDULLAYEV J. M. UBAYDIYNING ADABIY MAHORATI.....	708
ISMOILOVA B. N. JAMIYATDA AYOLLARNING FAOL ISHTIROKI VA FALSAFIY QARASHLARI.....	714
ISMOILOVA B.N. JAMIYATDA GENDER TENGLIGI VA AYOLLAR HUQUQLARINING HUQUQIY TA'MINOTI.....	729
AXMEDOVA D.N. AYOLLARNI ISH SOHASIDA HUQUQIY HIMOYA QILISH VA GENDER DISKRIMINATSIYASIGA QARSHI CHORALAR.....	743
AXMEDOVA D.N. AYOLLARNI HIMOYA QILISHGA QARATILGAN XALQARO HUQUQIY HUJJATLAR.....	758
DONIYOROV SH. A. HINDISTON MILLIY KONGRESINING SIYOSIY INQIROZI: SABABLARI VA OQIBATLARI.....	775